

Bizning sevimli qo'shiqlarimiz



Qo'shiq **to'rtlik** va **naqarotdan** tashkil topadi. To'rtliklar matni turlicha bo'lishi mumkin, lekin naqarot doim bir xil bo'ladi va qo'shiq davomida bir necha marta takrorlanadi.

Qo'shiq aytish qoidalarini yodda tuting:



Qaddingizni tik tuting,
chiroyli va sof tarzda
qo'shiq kuylang.



To'g'ri o'tiring,
erkin nafas oling,
shoshilmang.

**“Jo'jalarim” qo'shig'ini
tinglang.**



4



“Jo'jalarim” qo'shig'ining musiqasi ozarbayjonlik kompozitor **Qambar Husaynli** tomonidan bastalangan. Qo'shiq so'zlarini **Tofiq Mutallibov** yozgan. Bu qo'shiq dunyoning yuzlab tillariga tarjima qilingan.



1. Sizga bu qo'shiq yoqdimi?
2. O'zingiz yoqtirgan qo'shiq nomini ayting.
3. Uni kim ijro etgan?
4. Sevimli qo'shig'ingizni tinglayotganingizda kayfiyatingiz qanday bo'ladi?
5. Musiqi insonning kayfiyatini ko'taradi, deb ayta olamizmi?



Tez aytishlar – nutqni rivojlantirish uchun aytiladigan qofiyadosh qisqa she'r yoki iboralar.



Tez aytishni yod oling.

Tovuq sovuqda sovqotadimi,
Sovuqda tovuq sovqotadimi?



Ovoz sozlash – tovush paychalari uchun mashq.



She'ni yod oling va ovoz sozlash mashqini kuylang.

Maysalarni cho'qiyman deb tovuq shoshdi,
Orqasidan momiqqina jo'jalar ergashdi.
– Qoq-qoq-qoq! Qoq-qoq-qoq! Ketmangiz uzoq,
Yerni titib, don topganingiz yaxshiroq.

